



## OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA VAZIRLIGI TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI

“RAQAMLI TRANSFORMATSIYA: AXBOROT TEXNOLOGIYALARI,  
SUN’IY INTELLEKT VA IQTISODIYOTDA YANGI DAVR”  
(16-17 aprel 2025-yil)



(RTATSIIYD-2025)

XALQARO ILMIY – AMALIY KONFERENSIYA

2025-yil 16-17-aprel. Toshkent. O‘zbekiston

## Xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya maqsadi va vazifalari

**“Raqamli Transformatsiya: Axborot Texnologiyalari, Sun’iy Intellekt va Iqtisodiyotda Yangi Davr”** nomli xalqaro ilmiy – amaliy konferensiyadan ko‘zlangan asosiy maqsad xorijlik va o‘zbekistonlik yosh olimlar, oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, iqtidorli talaba-yoshlarni faol jalb qilish, samarali ilmiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun mutaxassislar tayyorlash: tajriba, metodika, muammolar, istiqbollar yo‘nalishida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari muhokama qilish.

Konferensiyaning ilmiy yo‘nalishi – Raqamli Transformatsiya: axborot texnologiyalari va Iqtisodiyotda yangi davr innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning nazariy va amaliy jihatlari. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining turli sohalarida qo‘llash bo‘yicha respublika olimlarining ilmiy izlanishlarini muhokama qilish.

### Konferensiya sho‘balari

1. *Raqamli Transformatsiya: axborot texnologiyalari, sohalaridagi dolzarb muammolar;*
2. *Ilm-fan va innovatsion texnologiyalar: zamonaviy muammolar va yechimlar;*
3. *Kiberxavfsizlik va ilm-fan: muammolar va yechimlar;*
4. *Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning ahamiyati.*
5. *Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalar;*
6. *Iqtisodiyotda sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash;*
7. *Raqamli moliya va iqtisodiyotning yangi paradigmalari;*
8. *Amaliy fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuv.*

Konferensiya maqolalariningizi quyidagi sayt

<https://forms.gle/hvBTUD6q9kXdafL57> orqali yuborishingizni so‘raymiz.

Konferensiyagan yalpi majlisida ma’ruza qilishni xohlovchilar 2025 - yilning 10-aprel kuniga qadar ma’ruza (presentatsiyasini) yoki matnini quyidagi elektron [hellosherxon@gmail.com](mailto:hellosherxon@gmail.com) pochtaga yuborishingizni so‘raymiz.

## **Maqolalar dizayni va yozilishiga qo‘yiladigan talablar:**

Anjumanga o‘zbek, rus, ingliz tillarida yozilgan va belgilangan talablarga javob beradigan, yakunlangan tadqiqot ishlari qabul qilinadi. Taqdim etilgan materiallar asl va konferensiya qoidalariغا mos bo‘lishi kerak.

Maqola qat’iyan **IMRAD** tavsiya etilgan shablon bo‘limlariga muvofiq yozilishi kerak;

Maqolalar konferensiya yo‘nalishiga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahsilga va tugallangan fikrlarga asoslangan, savodli tahrir qilingan, amaliy taklif va tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;

Maqolalar MS Word matn muharririda yozilishi va quyidagi ko‘rsatkichlarga muvofiq qat’iy rasmiylashtirilishi kerak:

- A4 formatda;
- matn sahifasining o‘ng va chap chekkalaridan 2 sm. dan joy qoldiriladi;
- yuqoridaн 2 sm. dan joy qoldiriladi;
- pastdan 2 sm. dan joy qoldiriladi;
- qator oralig‘i - 1,0 interval;
- matn sahifa kengligi bo‘yicha tekislanadi;
- Times New Roman shriftida;
- maqola nomi markazda joylashtirilib, qalin shrift uslubida, shrift o‘lchami 14 yozuv o‘lchami kattaligida, bosh harflar katta harf sarlavhaning birinchi so‘zi bo‘lmasa, katta harf bilan yozilmasligi kerak;
- muallif(lar) F.I.Sh (lar), markazda joylashtirilib, 11 yozuv o‘lchami kattaligida;
- tashkilot, manzil va elektron pochtalar markazda joylashtirilib, 11 yozuv o‘lchami kattaligida va shrift uslubi kursivga o‘rnatilgan bo‘lishi kerak;
- maqola matni uchun shrift o‘lchami - 11 yozuv o‘lchami kattaligida;
- xat boshi - 1 sm (“Tab” yoki “Probel” tugmalaridan foydalanmasdan)

### **Quyidagilarga ruxsat etilmaydi:**

- sahifalarni raqamlash;
- matnda sahifani avtomatik bo‘lishdan foydalanish;
- matnda avtomatik havolalardan foydalanish;
- avtomatik bo‘g‘in ko‘chirish;
- kamdan-kam hollarda ishlatiladigan yoki qisqartma harflarni qo‘llash.

Maqolaning sarlavhasi, muallif (lar) va u(lar)ning lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi, annotatsiya, kalit so‘zlar (uch tilda) bir ustunda yoziladi. Maqolaning qolgan matnlari bir ustunda yoziladi.

**Muallif(lar) haqida ma’lumot:** familyasi, ismi, otasining ismi, lavozimi, ilmiy darajasi va ish joyi. Ushbu ma’lumotlar maqola taqdim etilgan o‘zbek, rus tilida ham, ingliz tilida ham keltirilishi hamda maqolaning oxirida adabiyotlar ro‘yxatidan keyin joylashtirilishi kerak.

**Annotatsiya** (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) – annotatsiya hajmi 150–200 ta so‘zdan iborat bo‘lishi va maqolaning tuzilishini qisqacha ifodalovchi, axborot shaklida berilishi kerak. Annotatsiya boshqa tilga tarjima qilinganda ma’no va mazmun jihatidan asl matnga mos kelishi kerak. Bunda annotatsiyaning hajmi belgilangan so‘zlar sonidan oshib ketishi mumkin annotatsiya shrift o‘lchami 9 yozuv o‘lchami kattaligida.

**Tayanch so‘zlar** (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) – 5–10 ta so‘z va iboralardan iborat bo‘lishi kerak. Tayanch so‘zlar va iboralar bir-biridan vergul bilan ajratiladi. Keltirilgan tayanch so‘zlar tadqiqot mavzusini juda aniq aks ettirishi shart, shrift o‘lchami 9 yozuv o‘lchami kattaligida, oxirgi kalit so‘z nuqta bilan tugashi kerak;

### **Kichik bo‘lim sarlavhalari qalin shrift uslubida, shrift o‘lchami 11 pt;**

**Kirish.** Kirish qismida tadqiqotlarning dolzarbligi va obyekti tavsiflanadi. Dunyo olimlari tomonidan chop etilgan ilmiy maqolalarning tahlili keltiriladi. Chop etilgan adabiyot manbalarida

qo‘yilgan ilmiy izlanishlarning yechimi yo‘qligi tasdiqlangan holda muallifning ilmiy ishlari qaysi olimlarning ishiga asoslanganligi ko‘rsatiladi.

**Masalaning qo‘yiliши.** Mavzu bo‘yicha muammolarni yechish uchun qanday rasmiy hujjatlarga muallif tayangan va qanday masalalarning yechimi ko‘zda tutilgan.

**Yechish usuli** (yoki uslublari). Bunda tanlangan usul batafsil tavsiflanadi. Keltirilgan yoki qo‘llanilgan uslub boshqa tadqiqotchilar uchun ham tushunishiga qulay bo‘lishi kerak.

**Natijalar va na’munalar.** Natijalarni asosan jadvallar, grafiklar va boshqa suratlar ko‘rinishida keltirish tavsiya etiladi. Ushbu bo‘lim olingan natijalarni tahlil qilish, ularni sharhlash, boshqa mualliflarning natijalari bilan solishtirishni o‘z ichiga oladi. Natijalarda ilmiy-tadqiqotlar natijalari qisqacha umumlashtiriladi. Natijalar tadqiqotning obyekti parametrлari o‘rtasidagi munosabatlar mualliflar tomonidan belgilangan maqolaning asosiy ilmiy natijalarini umumlashtiruvchi, sonli xulosalarni o‘z ichiga oladi. Natijalar maqola boshida qo‘yilgan vazifalar bilan mantiqan bog‘langan bo‘lishi kerak.

**Jadvallar.** Jadvallar to‘g’ri raqamlangan, markazlashtirilgan bo‘lishi kerak va har doim uning ustida sarlavha bo‘lishi kerak. Shrift o‘lchami 11 yozuv o‘lchami kattaligida. Qalin yoki kursiv shrift uslubidan foydalanmaslik kerak; ilovaga qarang.

**Grafikli materiallar** (rangli rasmlar chizmalar, diagrammalar, fotosuratlar) o‘zida tadqiqotning umumlashtirilgan materiallarni ifodalashi kerak. Grafikli materiallar yuqori sifatli bo‘lishi kerak, agar zarurat tug‘ilsa, tahririyat ushbu materiallarni alohida faylda 300 dpi dan kam bo‘lmagan o‘lchamda jpg formatda taqdim etishni talab qilishi mumkin. Grafikli materialning nomi va tartib raqami pastki qismda keltirilishi zarur. Rasmlar to‘g’ri raqamlangan, markazlashtirilgan bo‘lishi kerak va uning ostida har doim nomi bo‘lishi kerak. Taglavhalar markazlashtirilgan bo‘lishi kerak, shrift o‘lchami 11 yozuv o‘lchami kattaligida. Qalin yoki kursiv shrift uslubidan foydalanmaslik kerak. Taglavhaning oxirgi jumlesi nuqta bilan tugashi kerak. Iltimos, “rasm” so‘zini yozishni unutmang. Agar sizning rasmingiz ikki qismidan iborat bo‘lsa, rasmning bir qismi sifatida “(a)” va “(b)” harflar ko‘rinishidan foydalanishingiz mumkin; 2-ilovaga qarang.

**Formulalar va matematik belgilar** MS Wordda o‘rnatalgan formatli muharrirda yoki MathType muharriri yordamida bajarilishi kerak.

Jadvallar, grafikli materiallar ko‘rsatilgan maydonidan chiqib ketmasligi lozim.

**Xulosa.** Ilmiy ishlarining qisqa natijalari keltiriladi, ularning ichida izlanishning usuli, yangi yechimi, amaliyotda qo‘llanishning natijalari iqtisodiy va boshqa ko‘rsatkichlar bo‘lishi kerak.

**Adabiyotlar ro‘yxati** quyidagi tartibda, shrift o‘lchami 10 yozuv o‘lchami kattaligida, 20 tadan kam bo‘lmagan manbalardan iborat bo‘lishi kerak, topilishi qiyin bo‘lgan va normativ hujjatlar, bundan tashqari internet manbalarida keltirilgan havolalar (davriy hujjatlar hisobga olinmaydi) bundan mustasno. 2-ilovaga qarang.

**Tashkiliy qo‘mita kelgan materiallarni saralash va tanlash huquqiga ega. Talab bo‘yicha yuborilmagan materiallar qabul qilinmaydi.**

### ***Asosiy sanalar:***

***Materiallarni qabul qilish – 2025- yil 10- aprelgacha.***

***Qabul qilinganligini tasdiqlash – 2025- yil 12- aprelgacha.***

***Ro‘yxatdan o‘tish to‘lovini to‘lash – 2025- yil 14- aprelgacha.***

***Konferensianing sanasi 2025- yil 16-17 aprel.***

Konferensiya maqolalaringizni quyidagi sayt <https://forms.gle/hvBTUD6q9kXdafL57> orqali yuborishingizni so‘raymiz.

*Konferensiya to‘plami dizayni va yozilishiga qo‘yiladigan talablar yuqoridaagi ilovada keltirilgan.*

• Faqat tahrir hay’atidan o‘tgan tezislarga to‘loymi amalga oshiring degan xabar yuboriladi. Maqola va tezis uchun **100 000 so‘m** to‘lanadi (sahifalar soni cheklanmagan).

• Maqola va tezis uchun to‘lovlar: “TOSHKENT AMALIY FANLAR UNIVERSITETI” MCHJ XK “TRASTBANK” XAB RAQAMLI BANK XIZMATLARI OFISI

• H/R: 20208000305295703002

MFO: 00491, STIR: 307848164

• To‘loymi tasdiqlash uchun to‘lov to‘g‘risidagi ma’lumot (skrinshot)ni Telegram va WhatsApp **+99890-053-06-69** raqamiga yuborishingiz so‘raladi.

**Qo‘srimcha ma’lumotlar:** Ilmiy salohiyatingizni yanada oshirmoqchi bo‘lsangiz, maqolalaringizni bizning **Toshkent amaliy fanlar universitetining quyida nomlar keltirilgan** jurnallarga tavsiya etamiz. Ushbu jurnallarga maqola chiqarish faqat jurnal taxriri yati a’zolari tavsiyasiga asosan qabul qilinadi. Jurnallarda chop etilgan maqolalar quyidagi xalqaro bazalar ro‘yxatidan o‘tkaziladi:

- 1. DOI**
- 2. Zenodo**
- 3. Open Aire**
- 4. Slib.uz**
- 5. Google Scholar**
- 6. in-academy.uz**




Iqtisodiyot va  
moliyaning amaliy  
muammolari



Amaliy tabiiy  
fanlar



Ijtimoiy fanlar:  
nazariya va amaliyot



Dasturiy ta’milot  
muhandisligi va  
amaliy fanlar

#### *Bog‘lanish uchun mas’ul xodimlar:*

Kompyuter injiniringi kafedrasidan, t.f.f.d., dotsent T.A.Xo‘jakulov +998 97 535 52 76

Kompyuter injiniringi kafedrasidan, A.A.Bahromov +99899 833 16 09

Kompyuter injiniringi kafedrasidan, Sh.O‘.Azimov +99890 513 67 83

Matematika kafedrasidan, PhD, dotsent v.b. G‘.T.Madg‘oziyev +99893 540 07 84

Iqtisodiyot kafedrasidan, i.f.f.d., dotsent N.I.Rustamov +99891 449 76 93

Iqtisodiyot kafedrasidan, i.f.n., dotsent B.O.Mo‘minov +99893 565 61 93

**Telegram va WhatsApp +99890 513 67 83 ( [hellosherxon@gmail.com](mailto:hellosherxon@gmail.com) )**

**Eslatma:** konferensiya mutaxassislar an’anaviy OFFLINE ZOOM platformasi orqali ishtirok etishlari mumkin. Konferensiya ZOOM identifikatori konferensiya dasturi va saytda e’lon qilinadi.

**Manzil:** Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Gavhar ko‘chasi, 1-uy. Toshkent amaliy fanlar universiteti, **A** va **B** binosi.